QARSHI DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 MAXSUS SON

INNOVATSION IQTISODIYOT: MUAMMO, TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 2-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
materiallari asosida tayyorlangan

@QMI_Instituti

Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy

www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical Journal

ojs.qmii.uz

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi,iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi
11. Olima ayollarning ilmiy tadqiqot natijalari

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a’zolari:

Овчиников Виктор Николаевич - i.fd., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергий Юревич - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игор Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями,

Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a’zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva GulruxJo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Инновационная экономика

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Учредитель:
Каршинский государственный технический университет

Председатель Редакционного Совета:
Р.Х. Эргашев, доктор экономических наук, профессор
Каршинский государственный технический университет

Заместитель председателя Редакционного Совета:
С.Н. Хамраева, доктор экономических наук, профессор
Каршинский государственный технический университет

Ответственный редактор:
Н.А. Очилова, PhD, доцент
Каршинский государственный технический университет

Технический редактор:
Ф.Ф. Хаккулов, PhD
Каршинский государственный технический университет

Журнал издается один раз в месяц в электронном виде через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:
180100, город Карши, улица Мустакиллик, дом 225
Тел.: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Факс: +998 (75) 221 13 95
E-mail: innoeconomic@qmii.uz

Научно-практический узбекский электронный журнал «Инновационная экономика» включен в перечень национальных научных изданий **Постановлением Президиума Высшей аттестационной комиссии при Главном министерстве образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.**

Статьи публикуются в журнале на основе следующих рубрик:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика региона и отрасли
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг
11, Результаты исследований женщин-ученых

Редакционная коллегия::
Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - и.ф.д., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - и.ф.д., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидиров - доктор технических наук, профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - и.ф.д., профессор (Кубанский государственный университет, Россия)

Кусаинов Халел Хаймуллаевич – кандидат технических наук, профессор (Казахстанский государственный технологический университет)

Самандарзода Искандар Хаким - к.т.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт» Войнаш Сергей Александрович Казанский Приволжский (Федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет Правительство РФ

Садриддинов Манучехр Исламиддинович Международный университет туризма и предпринимательства в Таджикистане, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна – директор Института исследований. международные экономические отношения, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогообложения, аудита и бизнес-анализа Финансового университета Российской Федерации

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита РГГУ

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансового университета Российской Федерации

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогообложения и налогового администрирования факультета налогообложения, аудита и бизнес-анализа Финансового университета Российской Федерации

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория инноваций управления, Институт проблем управления РАН

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория инноваций управления, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович – доктор экономических наук, профессор, академик

Бозоров Орифжон Шодиевич - кандидат технических наук, доцент

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - доктор экономических наук, профессор

Вахабов Абдурахим Васикович - доктор экономических наук, профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович – доктор экономических наук, профессор

Хатамов Очилди Курбанович – доктор экономических наук, профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна – кандидат экономических наук, профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна – кандидат экономических наук, профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна – кандидат экономических наук, профессор

Еркаева Гулбахор Панжиевна – кандидат экономических наук, профессор

Амиркулов Шухрат Олимович – доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - кандидат экономических наук, доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Эргашева Насиба Рахматуллаевна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - доктор философии экономических наук, (PhD), доцент

ISSN: 3030-315X

Innovatsion iqtisodiyot / Инновационная экономика /
The Innovation Economy, (2025)

Mundarija

Nazariya va metodologiya ... 32

Ўзбекистонда ноанъанавий ва қайта тикланувчи энергия манбаларининг ижтимоий-иқтисодий масалалари ... 33
Хусаинов Равшан Рахимович, Бобоёров Равшан Отабекович
Рашидова Дилфуза Ғаниевна

Innovatsion biznes modellar: koevolyutsiya platformasidagi yangi iqtisodiy yechimlar ... 40
Sidorov Viktor Aleksandrovich

Креатив иқтисодиётни ривожлантиришнинг муҳим йўналишлари ... 47
Қулмамат Джанзакович Мирзаев

Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sohasida normativ-huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishini tahlil qilish ... 51
Imomnazar Egamberdiyevich Tursunov

Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish yo‘llari va strategik yondashuvlar ... 57
Ergashev Tohir Kurbanovich, Toxirova Nigora Zokirjon qizi

“Yashil” iqtisodiyot: nazariy asoslari va rivojlanish istiqbollari ... 61
Bobokulov Bahromqul Mamatkulovich, Sharipov Sardor Begmaxmat o‘g‘li, Maxmudova Mohinur Ravshanbekovna

Yashil iqtisodiyot sharoitida ish o‘rinlarini yaratish ... 67
Maryam Sharipovna Nazarova, Ravshan Akbarali o‘g‘li Berdikulov

Sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining paydo bo’lish tarixi va uni rivojlanish bosqichlari ... 73
Narzullayev Elmurod Shuxrat o‘g‘li

Raqamli iqtisodiyot ... 78

O‘zbekistonda fintex sanoati evolyusiyasi: salohiyat va kelgusidagi rivojlanish ... 79
Sayyora Nasimovna Xamrayeva

Xalqaro mehmonxonalarda sun'iy intellektni qo'llash imkoniyatlari ... 86
Satullayev Azamat Damirovich, Amriddinova Rayxona Sadriddinovna

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishda raqamli iqtisodiyotning roli ... 90
Asimova Feruza Abdusattorovna

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari va mexanizmlari ... 95
Djumabayeva Shaira Xalillayevna

Atrof-muhitni muhofaza qilishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati ... 98
To‘lqin Nurboboyevich Yarboboyev, Karima Yodgor qizi Qosimova

Iqtisodiyot va biznesda so‘nggi texnologiyalarni tadbiq etishning nazariy-metodologik jihatlari ... 103
Nargiza Abduqahorovna Kamilova

Zamonaviy ta’lim konseptiyasida mobil ilova va bulut xizmatlarining integrariyasi ... 109
Irina Jumanazarovna Bozorova, Lobar Dhamshidovna Maxmanazarova

Germaniyada “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish xususiyatlari ... 114
Safarova Zulfizar Zafar qizi

Raqamli moliyaviy texnologiyalar va ularning moliya bozori barqarorligiga ta’siri ... 118
Odilbekov Shaxbozbek Shuxratjon o‘g‘li

Korxonalar faoliyatining iqtisodiy tahlilini qilishda sun’iy intellektdan foydalanish: imkon va muammolar ... 124
Saliev Baxodir Kamilovich

Рақамли иқтисодиётга ўтишда билвосита солиқлар ҳисобининг назарий ҳуқуқий асослари ... 127
Джалилов Раҳмонкул Ҳамидович

Raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish metodologiyasini takomillashtirish ... 131
Yakubova Shamshinur Shuxratovna

Samiyev Sardor Iskandarovich
Тижорат банкларининг пул оқимини бошқариш хусусидаги илмий қарашлар ... 735
Набиев Фаррух Сафарович
Qishloq xo‘jaligida innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari va metodologik yondashuvlar ... 740
Rasulov Xurshid Qaxxorovich
Саноат корхоналарида инвестицион фаолиятни молиялаштиришни такомиллаштириш ... 746
Самиев Сардор Исканларович
Инвестицион сиёсат, инвестицион фаолиятни молиялаштириш - саноат корхоналари инвестицион фаолиятни молиялаштиришнинг энг муҳим фундаментал асослари сифатида ... 752
Самиев Сардор Исканларович
O‘zbekistonda kichik biznes korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari ... 756
Muxayyo Xudayberdiyevna Dustova ... 756
Soliq tizimi transformatsiyasining ustuvor yo‘nalishlari ... 762
Djuraev Anvar Meylievich
O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari ... 770
Ruziyev Zafar Ikromovich
Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining rivojlanishida investitsiyalarning tutgan o‘rni ... 774
Qodirova Mohinur Bahodir qizi

Ekonometrika va statistika ... 779

Qurilish firmalarini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi samaradorligini baholash modeli ... 780
Diyarova Maxliyo Islamovna, Raximov Sanjar Abdulaxodovich
Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari va leontyev modelining xususiyatlari ... 785
Raximov Anvar Norimovich
Tor tebranish tenglamasi uchun siljishli masalalar ... 796
Jura Oramov
Geometrik masalalarni yechishda hosila tushunchasining tadbiqlari ... 801
Jura Oramov
Ichki savdo tizimini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va ekonometrik modellashtirish zaruriyati ... 806
Maxmatqulov G‘olibjon Xolmuminovich
“Eco-Kayzen” modeli asosida mahalliy ishlab chiqaruvchilarda ekologik samaradorlikni uzluksiz oshirish yo‘llari ... 812
Eshmurodova Shaxnoza Shaxriddinovna

Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi ... 818

Turistik klasterlarini yaratishning tashkiliy tuzilishi ... 819
Navruz-zoda Zebiniso Baxtiyorovna
Qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasida aholi bandligining holati ... 823
Murodbek Dusmurot o‘g‘li Usmonov
Infratuzilmani rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish yo‘llari ... 827
Ochilova Nargiza Akramovna, Abdullayeva Yulduz Shavkat qizi
Qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish orqali aholini ish bilan ta’minlash va farovonligini oshirish mezonlari va ko‘rsatkichlari ... 831
Murodbek Dusmurot o‘g‘li Usmonov
The importance of english in the tourism sector of Uzbekistan ... 836
Rakhmanova Mukaddas Davronjon kyzy
Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda turizm xizmatlar bozorining o‘rni ... 840
Tuxliyev Iskandar Suyunovich

Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi
Innovatsion iqtisodiyot / Инновационная экономика / The innovation economy
UDC 331.338.49

Qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish orqali aholini ish bilan ta’minlash va farovonligini oshirish mezonlari va ko‘rsatkichlari

Murodbek Dusmurot o‘g‘li Usmonov

Критерии и показатели обеспечения занятости населения и повышения благосостояния через сферу услуг в сельской местности

Муродбек Дусмурот угли Усмонов

Criteria and indicators for ensuring employment and improving well-being through service provision in rural areas

Murodbek Dusmurot ugli Usmonov

Received: October 11, 2025 **Revised:** October 13, 2025 ■ **Accepted:** October 17, 2025 ■ **Published Online:** November 1, 2025

■ **Annotatsiya.** Mazkur maqolada qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasining aholini ish bilan ta’minlash va farovonligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Xizmatlar sohasi qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri, bandlik darajasini oshirishdagi hissasi va turmush sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlari ilmiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot davomida xizmat ko‘rsatish sektorining qishloq hududlarida rivojlanishini baholash uchun muhim indikatorlar aniqlangan bo‘lib, ular aholi daromadlarining o‘sishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va xizmatlarning turlarini diversifikatsiya qilish orqali o‘lchanadi. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar, jumladan, infratuzilma yetishmovchiligi, investitsiya jalb qilish bilan bog‘liq qiyinchiliklar va malakali ishchi kuchi taqchilligi kabi omillar muhokama qilinadi.

■ **Kalit so‘zlar:** Xizmat ko‘rsatish, qishloq hududlari, bandlik, iqtisodiy rivojlanish, aholi farovonligi, xizmatlar diversifikatsiyasi, infratuzilma, investitsiya.

■ **Аннотация.** В данной статье анализируется роль сферы услуг в обеспечении занятости населения и повышении его благосостояния в сельских районах. Изучается влияние сферы услуг на экономическое развитие сельских территорий, ее вклад в рост уровня занятости и возможности улучшения условий жизни на основе научного подхода. В ходе исследования определены ключевые индикаторы оценки развития сферы услуг в сельской местности, включающие рост доходов населения, создание новых рабочих мест и диверсификацию видов услуг. Кроме того, в статье рассматриваются существующие проблемы, такие как недостаточность инфраструктуры, трудности привлечения инвестиций и нехватка квалифицированной рабочей силы.

- **Ключевые слова:** сфера услуг, сельские территории, занятость, экономическое развитие, благосостояние населения, диверсификация услуг, инфраструктура, инвестиции.
- **Abstract.** This article analyzes the role of the service sector in ensuring employment and enhancing the well-being of the population in rural areas. The study explores the impact of services on the economic development of rural regions, their contribution to increasing employment levels, and the opportunities for improving living standards through a scientific approach. During the research, key indicators for evaluating the development of the service sector in rural areas were identified, including the growth of household incomes, the creation of new jobs, and the diversification of service types. Furthermore, the article discusses existing challenges such as insufficient infrastructure, difficulties in attracting investments, and the shortage of skilled labor.
- **Keywords:** service sector, rural areas, employment, economic development, population well-being, service diversification, infrastructure, investment.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarining barqaror rivojlanishi va aholi turmush darajasini yaxshilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida kuzatilayotgan globallashuv va urbanizatsiya jarayonlari fonida qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu jarayonda xizmat ko‘rsatish sektori asosiy drayverlardan biri bo‘lib, u nafaqat yangi ish o‘rinlari yaratish, balki aholi farovonligini oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi qishloq hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, ushbu sektor mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish orqali aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, xizmatlar sohasi iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarini tezlashtirib, qishloq hududlarining agrar tarmoqqa ortiqcha qaramligini kamaytiradi. Uchinchidan, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining rivojlanishi qishloq joylarida yashash sharoitlarini yaxshilashga, urbanizatsiya bosimini kamaytirishga va mahalliy aholining ijtimoiy faolligini oshirishga yordam beradi.

“Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida quyidagilar tasdiqlangan:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish kabilarni keltirishimiz mumkin.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlash, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan.

Qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi aholining turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy xizmatlarning yaxshilanishi, sog‘liqni saqlash, ta’lim, moliyaviy xizmatlar va transport infratuzilmasining rivojlanishi natijasida qishloq aholisi shahar infratuzilmasiga bog‘liq bo‘lmaydi. Shu bilan birga, mahalliy xizmatlar sektori rivoji qishloqlarda o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining rivoji nafaqat iqtisodiy farovonlik, balki qonuniy ish bilan ta’minlanganlik darajasini ham oshiradi. Norasmiy iqtisodiyotdan rasmiy ish bozoriga o‘tish imkoniyatlari ko‘payadi. Qishloq hududlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sohasida davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiya va kredit yordami mexanizmlarining kengaytirilishi adolatli iqtisodiy muhit shakllanishiga xizmat qiladi.

Qishloq hududlarida xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali iqtisodiy diversifikatsiya ta’minlanadi. Qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoq bo‘lib qolayotganiga qaramay, xizmatlar sohasi qishloq hududlarida qo‘shimcha qiymat yaratishning muhim vositasiga aylanmoqda. Jumladan:

- tijorat va moliyaviy xizmatlar (bank, sug‘urta, elektron savdo);
- logistika va transport xizmatlari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan xizmatlar;
- turizm va mehmonxona biznesi;
- maishiy xizmatlar (sartaroshlik, ta’mirlash, uy xizmatlari va h.k.).

Ushbu xizmatlar sektori qishloq aholisining mehnat bozoridagi faolligini oshirib, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim

rol o‘ynaydi.

Qishloq joylarida xizmatlar sektori orqali bandlik darajasining oshirilishi kambag‘allik darajasini pasaytirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sifatli ta’lim, kasbiy malaka oshirish va innovatsion xizmatlar tizimining kengaytirilishi orqali ishsizlar soni qisqaradi, ayollar va yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyasi yaxshilanadi va aholining migratsiya jarayonlari kamayadi.

Davlat tomonidan xizmat ko‘rsatish sohasini rag‘batlantirish uchun qabul qilinayotgan dasturlar, tadbirkorlikni rivojlantirish va soliq imtiyozlarini kengaytirish, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, qishloq aholisining iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash va ularning yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan bandlikni oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson qadrini ulug‘lash tamoyillari qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Xizmatlar sektorining o‘sishi nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki ijtimoiy tenglik, kambag‘allikni kamaytirish va barqaror rivojlanishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish orqali aholini ish bilan ta’minlash va farovonligini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasi orqali aholini ish bilan ta’minlash va farovonligini oshirish masalasi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Tadqiqotchilar ushbu mavzuda iqtisodiy rivojlanish, bandlik darajasi, xizmatlar sektori va davlat siyosati bilan bog‘liq jihatlarni tahlil qilganlar. “Xizmat ko‘rsatish sohasi qishloq iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ish o‘rinlari yaratish va hududiy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi (Davis & Winters, 2018)” [8]. Xizmat ko‘rsatish sohasi qishloq iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, xizmatlar sohasi hududiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u turli sektorlarni integratsiyalashga imkon yaratadi. “Chenery va Srinivasan (2020) tadqiqotlariga ko‘ra, qishloq joylarida xizmatlar sektori rivojlanishi iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirib, agrar sohalarga bo‘lgan qaramlikni kamaytirishga yordam beradi” [7]. Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy diversifikatsiyani rag‘batlantirishi aniq, biroq bu jarayonda qishloq infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi ham katta ahamiyatga ega. Agrar sektordan qaramlikni kamaytirish xizmatlar sohasi orqali amalga oshirilishi mumkin, lekin bu uzoq muddatli strategiyalar talab etadi. “McGranahan (2019) xizmatlar sohasi infratuzilmasi va innovatsion texnologiyalarning qishloq hududlarida bandlikka ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, xizmatlar ko‘lamining kengayishi aholining turmush darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan” [9]. Xizmatlar sohasi infratuzilmasi va innovatsion texnologiyalar bandlikni oshirishga yordam berishi haqiqatga yaqin fikr. Biroq, texnologik o‘sishning qishloq joylarda qanchalik tez joriy etilishini baholash ham muhim. Internetga kirish imkoniyati va texnologik savodxonlik darajasi ushbu jarayonni belgilovchi asosiy omillardan biridir.

“Bebbington (2019) qishloq hududlarida xizmatlar sektori bandlik darajasini oshirish uchun muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, xizmatlar sohasi, xususan, savdo, transport, maishiy xizmatlar va ta’lim tizimi orqali yangi ish o‘rinlari yaratilishi qishloq aholisining daromadlarini oshiradi”[6]. Ayniqsa, savdo, transport, maishiy xizmatlar va ta’lim tizimi bandlikni oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, ushbu xizmat turlarining qishloq joylarida barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun investitsiyalar va davlat qo‘llab-quvvatlashi talab qilinadi. “Rodrik (2022) esa qishloq joylarida bandlik darajasini oshirishda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining o‘rni haqida batafsil tadqiqot olib borgan. Unga ko‘ra, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan kichik biznes korxonalari qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish sektorining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi” [11]. Kichik biznes va tadbirkorlik qishloq joylarda xizmatlar sektorining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Biroq, bu jarayonda ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit resurslarining yetishmovchiligi yoki yuqori soliq yuklamasi biznesning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

“Jahon Banki (2022) hisobotiga ko‘ra, xizmatlar sohasi orqali qishloq joylarda ish o‘rinlari yaratish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi” [13].

Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, qishloq joylarida xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish va farovonlik darajasini yaxshilash mumkin. Bu jarayonda davlat siyosati, infratuzilma investitsiyalari va innovatsion texnologiyalar muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Xizmatlar sohasi qishloq hududlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash bilan birga, aholi turmush sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning tizimli yondashuv, monografik kuzatish, statistik abstrakt va mantiq fikrlash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usulidan samarali foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda 1 454 573,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga o‘sdi. Sanoat tarmog‘ining o‘sishi 6,8 %ni tashkil etdi va YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 1,7 f.p.ni tashkil etdi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining o‘sishi 3,1 % ni tashkil etdi va YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmining o‘sishi 8,8 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog‘ining YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi. Xizmatlar ko‘rsatish sohasida o‘sish sur’ati 7,7 % ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 11,1 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 13,4 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 4,5 %ga o‘sdi. Xizmatlar ko‘rsatish sohasining YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 3,3 %ni tashkil qildi. Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi 6,0 % ga o‘sdi va uning YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,3 %ni tashkil etdi” [12].

“2024-yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi 467 041,5 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilga nisbatan 103,1 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 451 019,6 mlrd. so‘mni (103,1 %), o‘rmon xo‘jaligida – 11 778,4 mlrd. so‘mni (103,0 %), baliqchilik xo‘jaligida – 4 243,5 mlrd. so‘mni (97,2 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko‘payganligi (3,1 %) bilan bog‘liq. Barcha toifadagi xo‘jaliklarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining oshishi uzumning – 5,4 %ga, polizning – 5,1 %, mevalarning – 4,8 %ga, donli ekinlarning – 4,8 %ga, kartoshkaning – 4,0 % ga, sutning – 4,0 % ga oshishi bilan izohlanadi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 % - dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 29,7 % - fermer xo‘jaliklari, 7,2 % - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda” [12].

Ushbu diagramma xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining 2021–2025-yillar oralig‘ida qanday o‘zgarishini aks ettiradi. Diagrammadagi asosiy ma’lumotlarni quyidagicha tahlil qilish mumkin. Xizmatlar sohasidagi korxonalar ulushining oshishi 2021-yilda xizmatlar sohasi jami faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning 60,1% ini tashkil qilgan. 2025-yilda esa bu ulush 68,7 %ga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tobora muhim tarkibiy qismiga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Xizmatlar sohasidagi korxonalar sonining o‘zgarishi 2021-yilda xizmatlar sohasida 247 043 ta korxona faoliyat ko‘rsatgan. 2022-yilda ularning soni keskin ortib, 283 214 taga yetgan. 2023-yilda eng yuqori o‘sish kuzatilgan bo‘lib, korxonalar soni 325 809 taga yetgan. 2024-yilda esa sezilarli kamayish kuzatilgan – 277 066 ta korxona. 2025-yil prognoziga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 246 122 taga tushishi kutilmoqda.



1-rasm. Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (01.01.2025 yil) [12]

Dinamik o‘zgarishlarning sabablari 2021–2023-yillarda o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, 2024 va 2025-yillarda pasayish kuzatilmoqda. 2023-yildagi eng yuqori o‘sish sabablari esa davlat tomonidan kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, raqamli xizmatlarning rivojlanishi va onlayn xizmatlarga talabning ortishi.

2024-yildan boshlab pasayishning mumkin bo‘lgan sabablari esa iqtisodiy muhitning o‘zgarishi, raqobatning kuchayishi,

moliyaviy va soliq yuklamalarining oshishi, biznes uchun xarajatlarning ko‘payishi, xizmatlar sektorining me’yorlashuvi – ba’zi kichik korxonalar bozorga moslasha olmagan bo‘lishi mumkin.

Xizmatlar sohasi umumiy iqtisodiy strukturada muhim rol o‘ynab, uning ulushi 2025-yilning oxiriga borib 68,7 %ga yetishi kutilmoqda. 2021–2023-yillarda korxonalar soni tez o‘sgan bo‘lsa, 2025-yilda pasayish kuzatilmoqda, bu esa bozor sharoitlari va davlat siyosatining qayta shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu tendensiyalar ish bilan ta’minlash va xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish mexanizmlari zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sektorining rivojlanishi aholining ish bilan ta’minlanishini oshirish va umumiy farovonlikni yaxshilash uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasi qishloq hududlarida iqtisodiy diversifikatsiyani ta’minlab, agrar tarmoqqa qaramlikni kamaytiradi hamda barqaror bandlik imkoniyatlarini yaratadi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlarining faoliyati qishloq iqtisodiyotini rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sektorining rivojlanish darajasini baholash uchun bandlik darajasi, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, yangi tashkil etilgan korxonalar soni va aholi real daromadlarining o‘sishi kabi ko‘rsatkichlar muhim hisoblanadi. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, kredit resurslariga erkin kirish va infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xizmat ko‘rsatish sohasining yanada rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri bo‘lib, u bandlikni oshirish, daromadlarni ko‘paytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan, xizmatlar sektorini rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvlar va davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar kelgusida qishloq hududlarining barqaror taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Murodbek Dusmurot o‘g‘li Usmonov Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, assistent-stajyor / Муродбек Дусмурот угли Усмонов Самаркандский институт экономики и сервиса, ассистент-стажёр / Murodbek Dusmurot ugli Usmonov Samarkand Institute of Economics and Service, Teaching Assistant Intern
   - usmonov.murodbek95@gmail.com
   - 0009-0001-7063-4194

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi (2022). 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
2. Jahon Banki (2023). World Development Report 2023: Jobs and Economic Transformation.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP) (2022). Human Development Report 2022: Uncertain Times, Unsettled Lives.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2024). Xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasi bo‘yicha tahliliy hisobotlar.
5. International Labour Organization (ILO) (2023). Employment and Social Outlook 2023: The Role of Services in Job Creation.
6. Bebbington, A. (2019). The dynamics of rural employment in the service sector: Lessons from developing economies. Development Economics Review, 14(2), 67-89.
7. Chenery, H., & Srinivasan, T. N. (2020). Structural change and employment in rural economies. World Development Journal, 48(4), 211-234.
8. Davis, B., & Winters, P. (2018). Non-farm employment and rural poverty reduction: Evidence from transition economies. International Journal of Rural Studies, 36(1), 44-69.
9. McGranahan, D. A. (2019). The role of rural services in employment growth and regional economic sustainability. American Journal of Agricultural Economics, 101(2), 512-530.
10. OECD. (2021). Rural development and employment creation: Policy approaches and case studies. OECD Rural Studies Report, 55(2), 1-49.
11. Rodrik, D. (2022). Structural transformation and rural employment: New evidence from global trends. Economic Transformation Journal, 39(3), 93-116.
12. O‘zbekiston Respublikasining Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” bo‘limidan olingan ma’lumotlar
13. World Bank. (2022). Rural employment strategies and service sector expansion in emerging economies. World Bank Policy Paper, 52(1), 1-58.

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ojs.qmii.uz